



## ANALYSIS OF LEGISLATION IN CERTAIN FOREIGN COUNTRIES ON PROTECTING PERSONAL SAFETY IN CRIMINAL PROCEEDINGS

**ASHUROV NODIR NAYIMOVICH**

Independent researcher at the Academy of the Ministry of Internal  
Affairs of the Republic of Uzbekistan

Scientific specialty: 12.00.09 - Criminal Procedure. Criminalistics,  
operational-search law and forensic examination.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14924507>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> February 2025

Accepted: 24<sup>th</sup> February 2025

Online: 25<sup>th</sup> February 2025

### KEYWORDS

Security, legal security,  
personal inviolability, suspect,  
accused, defendant, victim,  
witness, other persons,  
evidence.

### ABSTRACT

*The article thoroughly analyzes issues of ensuring the safety of participants in criminal proceedings. The author conducts a comparative legal analysis of international legal documents and the current laws and bylaws of the Republic of Uzbekistan regarding the security of process participants. The author scientifically examines ways to improve safety measures for participants in criminal proceedings, noting that legislation does not provide for the safety of certain individuals involved in criminal proceedings. Proposals and recommendations aimed at improving legislation are developed.*

## JINOYAT PROTSESSIDA SHAXS XAVFSIZLIGINI HIMOYA QILISH BO'YICHA AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR QONUNCHILILIGI TAHLILI

**ASHUROV NODIR NAYIMOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Ilmiy mutaxassisligi: 12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14924507>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> February 2025

Accepted: 24<sup>th</sup> February 2025

Online: 25<sup>th</sup> February 2025

### KEYWORDS

Xavfsizlik, huquqiy xavfsizlik,  
shaxsiy daxlsizlik, gumon  
qilinuvchi, ayblanuvchi,  
sudlanuvchi, jabrlanuvchi,  
guvoh, boshqa shaxslar,  
dalillar.

### ABSTRACT

*Maqolada jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalalari atroflicha tahlil qilingan. Muallif maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilarining xavfsizligi masalalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilgan holda o'rgangan. Maqolada muallif tomonidan jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish, qonunchilikda jinoyat protsessi ishtirokchisi bo'lgan ayrim shaxslarning xavfsizligini ta'minlash nazarda tutilmaganligi ilmiy tahlil qilingan va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*



Bugungi kunda guvohning to'g'ri va haqqoniy ko'rsatuv berishiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar jiddiy ravishda ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Guvohga nisbatan o'tkaziladigan turli tashqi tazyiq va bosimlar, jinoyat ishini hal qilish uchun ular ega bo'lgan ahamiyatli ma'lumotlarning mazmuni va mohiyatini o'zgartirishga qaratilgandir. Bunday tashqi ta'sir usullari ham o'zgarib bormoqda, jumladan guvohning yaqin qarindoshlariga nisbatan yoki ularning ishtirokida o'tkaziladigan tazyiq va bosimlarni keltirish mumkin.

Shu holatlarni nazarda tutib turli mamlakatlarning qonun chiqaruvchi organlari jinoyat protsessi ishtirokchilarining, xususan guvohning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini qo'riqlash obyekti sifatida himoya qilishni tartibga soluvchi protsessual normalar ishlab chiqilgan. Masalan: Gruziya JPKning 68-moddasiga muvofiq, guvohni (boshqa ishtirokchilarning ham) himoya qilishning quyidagi maxsus choralari qo'llanilishi mumkin:

a) guvohning shaxsini aniqlash va uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi barcha ommaviy reestrlardan yozuv va qaydlarni, jumladan – ismi, ota ismi, familiyasi, manzili, ish joyi, kasbi yoki boshqa ma'lumotlarni olib tashlash;

b) guvohning protsessual hujjatlarini tanib olish va identifikatsiyalash imkonini beruvchi hujjatlarni, shuningdek mazkur moddaning "a" bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlash;

v) taxallus taqdim etish;

g) xavfsizlik choralari qo'llash;

d) tashqi qiyofasini o'zgartirish;

e) doimiy yoki vaqtinchalik turar joyini o'zgartirish.

Bu masalada Rossiya Federatsiyasi jinoyat-protsessual qonun normalari qiziqish uyg'otadi. Aksariyat Hamdo'stlik mamlakatlaridan farqli o'laroq, Rossiya Federatsiyasi JPK guvohning (boshqa ishtirokchilarning) xavfsiligini ta'minlovchi choralarni bir qancha normalarda aks ettirgan. Bular quyidagilar:

a) so'roq qilish bayonnomasida guvohning shaxsiga oid va yaqin qarindoshlariga taalluqli ma'lumotlarni ko'rsatmaslik hamda ma'lumotlarni taxallus ostida qayd etish (RF JPKning 166-moddasi 9-bandi);

b) guvoh va yaqin qarindoshlari amalga oshiradigan telefondagi va boshqa so'zlashuv moslamalaridagi so'zlashuvlarni nazorat qilish va yozib borish (RF JPKning 186-moddasi 2-qismi);

v) tanib oluvchi va tanib olinuvchi o'rtasida yuz beradigan bevosita uchrashuvni cheklovchi tanib olish tergov harakatini o'tkazish (RF JPKning 193-moddasi 8-qismi);

g) guvohni so'roq qilish harakatini bevosita kuzatish imkonini cheklovchi sharoitlarda o'tkazish hamda guvohga taalluqli shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlanishini ta'minlash (RF JPKning 278-moddasi 5-qismi)[\[1\]](#).

Gruziya qonunlarida belgilangan xavfsizlik choralari nisbatan Rossiya qonunlarida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari ko'proq protsessual mazmun kasb etadi. Ushbu qonundagi guvohning xavfsizligini ta'minlashda mavjud bo'lgan eng muhim talablarni quyidagilarda ko'rish mumkin:

*birinchidan*, guvohga (boshqa ishtirokchilarga) oid ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlash;



*ikkinchidan, guvoh va ayblanuvchining (gumon qilinuvchining, sudlanuvchining) bevosita to'qnashuvini chegaralash.*

Bu masalaning muhim jihati shundaki, guvoh haqidagi ma'lumotlarni sir saqlanishi hamda uning shaxsini identifikatsiya qiluvchi rasmiy ma'lumotlarni o'zgartirish va guvohga taalluqli protsessual hujjatlarni taxallus ostida yuritishdir.

Guvohlarning shaxsiga oid ma'lumotlarni sir saqlash va ularni bevosita gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan bo'ladigan yuzma-yuz uchrashuvlarni cheklaydigan protsessual shart-sharoitlarni yaratish Hamdo'stlik mamlakatlarning deyarli aksariyatida guvohlarning jinoyat ishini sudda yuritish chog'ida o'z burchlarini bajarish bilan bog'liq holda, ularning xavfsizliklarini protsessual-huquqiy ta'minlashning muhim choralardan birini tashkil qiladi.

Aytish joyizki boshqa mamlakatlarning bu masalaga taalluqli bo'lgan protsessual normalarida guvohning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ikki ibora-tushunchani uchratish mumkin. Xususan, MDHga a'zo mamlakatlarda guvohning xavfsizligini ta'minlashda unga tegishli shaxsiy ma'lumotlar taxallus ostida sir saqlanadi. Xuddi shunday xarakterga ega xavfsizlik choralari qo'llovchi G'arbdagi ko'pgina mamlakatlarda bunday shaxslar – maxfiy guvoh maqomiga ega bo'ladilar.

Guvohlarning xavfsizligi masalasida BMTning giyohvandlik va jinoyatchilik bilan kurash Qo'mitasining "Uyushgan jinoyatchilikka oid jinoyat ishlarini yuritishda guvohlarni himoya qilish sohasi amaliyotiga tegishli Tavsiyalar"da "xaqaro maydonda guvohlarga nisbatan uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan turli xurujlar va tazyiqlar sodir etilayotganligi e'tirof etilib, guvohlarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish bugungi kun sudlov ishlarini yuritish sohasining dolzarb muammosi ekanligi ta'kidlanadi"[\[2\]](#).

Yevropa "umumiy uy" g'oyasi ostida a'zo davlatlar hamda o'zaro sheriklik asosida munosabatga ega mamlakatlar uchun YXXT Bosh kotibiyati tomonidan tayyorlangan "Jinoyat protsessi bo'yicha ma'lumotnomalar yo'riqnomasi"da "xaqaro maydonda guvohlarga nisbatan turli xuruj va tazyiqlar sodir etilayotganligi e'tirof etilib, guvohlarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish bugungi kun sudlov ishlarini yuritish sohasining dolzarb muammosi ekanligi ta'kidlanadi"[\[3\]](#).

Qayd etilgan hujjatda maxfiylik guvohlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda samarali usullardan biri ekanligi aytib o'tiladi. Jumladan, "Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining sudlov amaliyoti"ning 6-moddasi amalga oshirilishi (adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquq) munosabati bilan hamda "Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiya talablariga muvofiq, mahfiy guvohning ishtirokiga yo'l qo'yilib, uni amalga oshirishning protsessual shartlari belgilab berilgan hamda mazkur Konvensiyaga 46 mamlakat ko'shilgan[\[4\]](#).

Xorij olimlari guvohlarning xavfsizligini samarali ta'minlovchi usullardan biri bo'lgan shaxs maxfiyligi holatini ikki turga ajratadilar. Xususan, nemis olimining fikricha, muayyan xavf tug'ilgan guvohlarga nisbatan ta'minlanadigan maxfiylikning: 1) qisman yoki cheklangan maxfiylik; 2) mutlaq yoki to'liq maxfiylik[\[5\]](#) turlari mavjud.

Qisman yoki cheklangan maxfiylik tushunchasida guvohning faqat ayrim protsessual majburiyatlarni bajarishga ruhsat berish holati nazarda tutiladi. Shunga ko'ra, "himoya



tarafining sud muhokamasi vaqtida beradigan savollariga guvoh javob qaytarishi lozim. Mazkur holatda guvoh familiyasi, ismi, kasbi, ish joyi va boshqa shaxsiy ma'lumotlarni oshkor etish haqidagi savolga javob qaytarmaslik huquqiga ega" [6].

Bir guruh olimlarning fikricha, "guvohga oid bunday himoya vositasi huquqni qo'llash amaliyotida tezkor-qidiruv faoliyatiga jalb qilingan maxfiy maqomga ega hamda nomlari oshkor etilish xavfi tufayli sir bo'lib qoladigan shaxslarni jinoyat ishi yurituviga jalb qilish imkonini beradi. Bunday guvohlar (ko'pincha tezkor-qidiruv xodimlari, davlat xavsizlik idoralari xodimlari va boshqa) sud muhokamasida asosan taxallus ostida ko'rsatuv beradilar" [7].

Guvohning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi samarali protsessual choralaridan – shaxsiy ma'lumotlarning mutlaq maxfiy holda saqlanishiga oid tushuncha o'z nomi bilan guvohga oid barcha shaxsiy ma'lumotlarning sir saqlanishi bilan bog'liq [8].

Ayni shu masalada I.A.Surovenko va O.A.Chabukianilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "huquqni qo'llash amaliyotida shunday vaziyatlar ham uchrab turadiki, jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatli xabarga ega bo'lgan shaxs nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar hodimlariga ma'lum, balki uning shaxsi to'g'risida hamda ushbu shaxsning jinoyat ishi yuzasidan so'roq qilinishi mumkinligi haqida jinoyat sodir etgan shaxslar ham aniq biladilar. Bunday holatda jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatli ma'lumotga ega shaxsga oid ma'lumotlarni maxfiylashtirish o'rinsizdir. Aksincha, ushbu shaxsning xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rish zarur" [9].

Fikrimizcha, taxallusga ega guvohning xavfsizligini huquqiy vositalar va usullar bilan himoya qilish instituti sud va sudgacha bo'lgan bosqichlarda guvoh xavfsizligini ta'minlashning kafolati hamda odil sudlovni amalga oshirishning o'ziga xos elementi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur protsessual institut guvohlar tomonidan o'z ijtimoiy burchlarini bajarishni ta'min etuvchi vositalardan biri bo'lib qoladi.

Tadqiqotimiz bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 63 foizi muayyan vaziyatlarda xavfsizlik choralari qo'llash tabiatan profilaktik bo'lishi lozim deb hisoblashadi. Shu munosabat bilan ba'zi mualliflar Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasi birinchi qismini va O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasini kengaytirilgan talqin qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Bu jinoyat protsessi ishtirokchilariga noqonuniy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinishi mumkin bo'lgan hollarda protsessual xavfsizlik choralari qo'llash imkonini beradi.

Fikrimizcha, protsessual xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risidagi qaror nafaqat sodir bo'lgan xavfli ta'sirni bostirish maqsadida, balki uning oldini olish uchun ham qabul qilinishi lozim degan qarash to'g'riroq hisoblanadi.

"Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun jinoiy va boshqa noqonuniy harakatlar bilan tahdid qilingan taqdirda xavfsizlik choralari qo'llash mumkinligini belgilaydi. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarga xavfsizlik choralari keng qo'llashga imkon beradigan bunday noqonuniy harakatlar (tahdid) ro'yxatini ko'rsatmaydi.



Bundan tashqari, xavfli ta'sir nafaqat jinoiy yoki noqonuniy, balki kelajakda jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlari uchun xavfli oqibatlarining boshlanishini taxmin qilish mumkin bo'lgan boshqa xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Bundan ko'rinadiki, protsess ishtirokchilariga nisbatan kelgusida ta'qib qilinishi mumkinligini tezkor qidiruv tadbirlari davomida aniqlash va salbiy oqibat yuz berishini oldini olish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, jinoyat-protsessual xavfsizlik choralari quyidagi hollarda qo'llanilishi lozim:

1) jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan jinoiy yoki boshqa noqonuniy harakat bilan xavfli ta'sir amalga oshirilganligi to'g'risidagi faktik ma'lumotlarning mavjudligi (guvohlaridan biri sog'lig'iga shikast yetkazish yoki uning mol-mulkini yo'q qilishga urinish);

2) kelajakda jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan xavfli ta'sirlarni sodir etilishi mumkinligini ko'rsatadigan faktik ma'lumotlarning mavjudligi (jinoyatlar uyushgan guruh tomonidan yoki residivist shaxslar tomonidan sodir etilganda, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilganda).

Jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan tahdid qilish masalasi olimlar tomonidan turli yo'llar bilan tahlil qilingan.

Xususan, G.P.Mineyevaning ta'kidlashicha, "voqelik (tahdidning) tahdid qiluvchi shaxsning tahdidni amalga oshirishga ichki tayyorligi mavjudligida emas, balki bunday tayyorlikning tashqi namoyandaligida ifodalanadi"[\[10\]](#).

O.A. Zaysevning fikricha, "xavfli ta'sir qilish tahdidi jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan real deb qabul qilinganda haqiqiydir"[\[11\]](#).

Tahdidning haqiqiylikini baholashda nafaqat uning himoyalangan shaxs tomonidan idrok etilishini, balki tahdid qiluvchi shaxsning niyatining turli xil ko'rinishlarini, ijro etish imkoniyatini[\[12\]](#), shuningdek boshqa holatlar va sharoitlarni ham hisobga olish lozim.

Ko'rinib turibdiki, davlat muhofazasi choralari qo'llash uchun asos hisoblangan haqiqiy tahdidning mavjudligi yoki tahdidning haqiqiylik to'g'risidagi ma'lumotlar boshqacha talqin qilinishi mumkin. Masalan, jinoyat ishi bo'yicha belgilangan xavfli ta'sirni yoki kelajakda uni jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan sodir etilishi imkoniyatlarini ko'rsatadigan aniq faktik ma'lumotlar sifatida qaralishi mumkin. Agar odil sudlovga erishishga, haqiqatni aniqlashga ko'maklashuvchi guvohlardan biri o'ldirilgan bo'lsa, unda xavfli ta'sir ko'rsatildi deb aytish mumkin va kelajakda xuddi shu jinoyat ishida ishtirok etayotgan boshqa guvohlarga nisbatan ham xavfli ta'sir ko'rsatilishi mumkinligi haqida xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

Shu kabi holatlarda, O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida "himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash kabi davlat himoya chorasini haqiqiy tahdid mavjud bo'lmasa ham qo'llanilishi mumkin"ligi, 24-moddasida esa "davlat muhofazasiga olingan shaxslarning xavfsizligiga tahdid, ularning mol-mulkiga zarar yetkazish tahdidi munosabati bilan davlat tomonidan himoya qilish choralari qo'llash zarur"ligi ko'rsatilgan.

Mazkur ma'lumotlarni jinoyat ishini yuritadigan davlat organlari va mansabdor shaxslar (sud, sudya, surishtiruv organi rahbari, tergov organi rahbari, tergovchi) xavfsizlik choralari



amalga oshiruvchi organ bilan birgalikda tekshirishlari, zarur xavfsizlik choralarini tanlab olish, ularni qo'llash usullarini aniqlash, qo'llaniladigan xavfsizlik choralarini zarur bo'lgan hollarda o'zgartirish va ularga qo'shimchalar kiritishlari mumkin.

Shu bilan birga, davlat muhofazasiga olinadigan shaxslarning xavfsizligiga haqiqiy tahdid mavjud yoki yo'qligini, shuningdek ularning mulkiga zarar yetkazish xavfini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni tekshirish natijalari to'g'risida xavfsizlik choralarini ta'minlovchi organlar tomonidan himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organlarga taqdim etiladi.

Fikrimizcha, jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga ta'sir ko'rsatilishi haqidagi ma'lumotlarning mavjud yoki yo'qligini aniqlash uchun tekshirish majburiyatini yuklaydigan huquqiy normalar Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

Faktik ma'lumotlarni tekshirish tezkor qidiruv tadbirlari paytida, shuningdek vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan tergov harakatlarini o'tkazish davomida protsessual dalillarni to'plash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumotlarning yetarliligi, ya'ni xavfsizlik choralarini qo'llashga asoslarining yetarliligi to'g'risidagi masala vakolatli davlat organlari va jinoyat ishini yuritadigan mansabdor shaxslar tomonidan, ularning ichki ishonchiga ko'ra va jinoyat ishi bo'yicha mavjud ma'lumotlarni hisobga olgan holda hal qilinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, «tezkor qidiruv tadbirlari davomida tezkor xodimlar himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan psixologik kuzatuvni ham amalga oshirish lozim»[\[13\]](#) bo'lib, bu shaxsga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan tahdidni oldini olishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, protsessual xavfsizlik choralarini qo'llash uchun huquqiy asos jinoyat protsessining xavfsizligi obyektlariga nisbatan jinoiy yoki boshqa noqonuniy harakat sodir etilganligi yoki kelgusida sodir etilish xavfi mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar deb hisoblash lozim bo'ladi.

Xavfsizlik va davlat muhofazasini ta'minlashning huquqiy asoslari deganda aksariyat tadqiqotchilar vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan tegishli protsessual qaror qabul qilinishini tushunadilar. Ushbu yo'nalishda mualliflar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining harakatlari uchun asos bo'lgan huquqiy qoidalarni belgilash uchun: "tashkiliy", "rasmiy", "protsessual", "normativ", "huquqiy" kabi turli xil atamalardan foydalanadilar.

Xavfsizlik choralarini qo'llash va Davlat muhofazasining huquqiy asosi vakolatli mansabdor shaxs tomonidan xavfsizlik choralarini qo'llash yoki davlat muhofazasini amalga oshirish to'g'risida yozma shaklda ifodalangan protsessual qarorni qabul qilishdir.

Xo'sh, agar jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan jinoiy va boshqa xavfli noqonuniy harakatlar tahdidlari to'g'risida yetarli ma'lumotlar to'plangan bo'lsa, vakolatli shaxslar tomonidan tegishli qaror qabul qilish ularning huquqimi yoki majburiyatimi?

Agar xavfsizlik choralarini qo'llashga jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan kelajakda xavfli ta'sir mavjudligi haqidagi ma'lumotlar sabab bo'lsa, vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar xavfsizlik choralarini qo'llash to'g'risidagi qarorda jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan xavfli ta'sirni yoki uni sodir etilish xavfi mavjudligini ko'rsatishlari shart.



Xavfsizlik choralari amalga oshirishning qonuniyligi prokuror va sud nazoratida bo'ladi. Xavfsizlik choralari qo'llash asoslari jinoyat protsessining istalgan bosqichida nafaqat vakolatli organning tashabbusi bilan, balki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining murojaatlari bo'yicha ham qayta-qayta tekshirilishi mumkin.

"Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga muvofiq, himoyalangan shaxsga nisbatan xavfsizlik choralari qo'llashga "himoya qilinuvchi shaxsni jinoyat protsessida ishtirok etganligi munosabati bilan o'ldirish, unga zo'rlik ishlatish, uning mol-mulkini yo'q qilish yoki mol-mulkiga shikast yetkazishning aniq tahdidi mavjudligi haqidagi ma'lumotlar", himoya qilinuvchi shaxsning yozma arizasi yoki uning yozma roziligi" [14] asoslari hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi tomonidan xavfsizlik choralari qo'llashga nisbatan "sabablar" atamasi o'rniga "asoslar" atamasi qo'llanilgan. Biroq, sanab o'tilgan asoslar xavfsizlik choralari qo'llash sabablari bilan bog'liq. Shu bois, qonunning mazkur normasini "himoyalangan shaxsga nisbatan xavfsizlik choralari qo'llash sabablari" deb ko'rsatish mantiqan to'g'riroq ko'rinadi.

Ushbu sabablarni quyidagicha to'ldirish mumkin: *"himoyalangan shaxsning og'zaki, yozma va elektron murojaati; himoyalangan shaxsning tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, sud va ommaviy axborot vositalari orqali bergan bayonoti; himoyalangan shaxsning yaqin qarindoshlari yoki boshqa shaxslarining murojaati; voyaga yetmaganlarga nisbatan esa – ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek vasiylik va homiylikning organi vakilining murojati"*.

Fikrimizcha, xavfsizlik choralari qo'llashda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) jinoyat protsessining har qanday ishtirokchisi tomonidan xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risida berilgan murojaat. Biroq, bu huquq jinoiy protsessning barcha ishtirokchilariga berilmagan. Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasi mazmunidan kelib chiqib, jinoyat protsessining har qanday ishtirokchisi va protsessual maqomga ega bo'lmagan boshqa shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralari qo'llash imkoniyati protsessual tartibda to'liq belgilanmagan;

2) Jinoyat-protsessual kodeksining 170-moddasiga muvofiq telefon yoki boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali bo'ladigan so'zlashuvlarini eshitib turish natijalarini qayd etuvchi protsessual hujjatlar;

3) jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan kelgusida xavfli ta'sirlarning yuzaga kelishi mumkinligi to'g'risidagi tezkor-tergov choralari amalga oshiruvchi organlarning vakolatli davlat organlariga va mansabdor shaxslarga topshiradigan ish hujjatlari;

4) mazmunidan kelajakda jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan xavfli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin bo'lgan jinoyat ishida mavjud har qanday ma'lumotlar.

Protsessual xavfsizlik choralari qo'llash sabablarining yuqoridagi ro'yxatiga og'zaki va yozma bayonotlar, shuningdek jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga nisbatan sodir etilgan jinoiy yoki noqonuniy harakatlar natijasida yuzaga keladigan xavfli ta'sir to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jinoyat ishining har qanday mhujjatlarini kiritish mumkin.



Shunday qilib, xavfsizlik choralari qo'llashning sababi og'zaki va yozma bayonotlar, kelajakda sodir etish ehtimoli yoki jinoyiy yoki noqonuniy harakatlarning jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga xavfli ta'siri to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jinoyat ishi hujjatlari bo'lishi lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasi ikkinchi qismini quyidagi yangi tahrirda qabul qilish lozim:

*"Jinoyat protsessi ishtirokchilari, shu jumladan jinoyiy odil sudlovni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar hayoti, sog'lig'i (jismoniy va ruhiy holati), sha'ni, qadr-qimmat, huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari, mol-mulkiga nisbatan;*

*Ishga aloqador, ammo jinoyat-protsessual maqomini olmagan boshqa shaxslarning, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari, qarindoshlari yoki yaqin shaxslarining mulkiy va ishbilarmonlik obro'siga nisbatan jinoyiy yoki boshqa noqonuniy harakat sodir etilgan yoki kelajakda sodir etish xavfi bo'lgan harakatni ko'rsatuvchi yetarli ma'lumotlar belgilangan va mavjud bo'lgan taqdirda, sud, prokuror, tergov organi rahbari, tergovchi, surishtiruv organi rahbari, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruv organi O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari qo'llashi shart".*

Jinoyat-protsessual kodeksi va "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq xavfsizlik choralari va davlat muhofazasini qo'llashda quyidagilar aniqlanishi lozim: xavfsizlik choralari qo'llash uchun sabab mavjudligi; xavfsizlik choralari qo'llash asoslari mavjudligi.

Xavfsizlik choralari va davlat muhofazasini qo'llash uchun haqqoniy ma'lumotlarning yetarliligini baholash xavfsizlik choralari qo'llash bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

*Tadqiqotimiz davomida xavfsizlik va davlat muhofazasi choralari qo'llash yoki ularni qo'llashni rad etish to'g'risida qaror quyidagi tartibda amalga oshirilishini aniqladik:*

xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishning muddati, murojaat kelib tushgan kundan boshlab uch sutkadan ortiq bo'lmagan muddatga, davlat himoya choralari qo'llash bo'yicha qaror qabul qilish muddati, himoya choralari qo'llash zarurligi to'g'risida ma'lumot olingan kundan boshlab bir oy ichida bo'lishi mumkin, ammo shoshilinch holatlarda u darhol qabul qilinadi;

xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risida qabul qilingan qaror, aniq xavfsizlik choralari va ularni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilgan holda, himoyalangan shaxsga xabar qilinadi, unga uning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yozma ravishda ko'rsatmalar berilishi mumkin;

qaror ustidan yuqori organga, prokurorga, sudga shikoyat qilinishi mumkin. Shikoyat topshirilgan paytdan boshlab 24 soat ichida ko'rib chiqilishi lozim;

qaror (ajrim) nusxasi chiqarilgan kuni himoya choralari amalga oshiradigan organga, manfaatdor shaxsga yuborish; himoya choralari qo'llash, ularni o'zgartirish yoki to'ldirish haqida himoya choralari ijro etuvchi organ tomonidan jinoyat ishi yuritilayotgan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarga xabar berish;

himoyalangan shaxs bilan yozma ravishda tanlangan xavfsizlik chorasini qo'llash shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan shartnoma tuzish;



xavfsizlik choralarini amalga oshiruvchi organ tomonidan himoyalangan shaxsga psixologik yordam ko'rsatish;

xavfsizlik choralarini qo'llash to'g'risidagi qarorning amal qilish muddati tegishli qarorni qabul qilgan organ, mansabdor shaxs tomonidan belgilanadi.

*Xavfsizlik choralari quyidagi hollarda bekor qilinadi:* zarurat qolmaganda, ya'ni ularni qo'llashga asos bo'lgan hollatlar bartaraf bo'lganda; himoyalangan shaxsning yozma arizasiga ko'ra, xavfsizlik choralarini qo'llash to'g'risida shartnoma tuzishdan yoki ularning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan talablarni bajarishdan bosh tortganda; xavfsizlik choralarini bekor qilish to'g'risida himoyalangan shaxslarning yozma murojaati asosida.

Xavfsizlik choralarini amalga oshiruvchi organning ularni bekor qilish to'g'risidagi iltimosnomasi davlat muhofazasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilgan organga yoki jinoyat ishini ko'rayotgan organga yuboriladi.

Himoyalangan shaxs tomonidan shartnoma shartlari yoki qoidalari buzilganligi xavfsizlik choralarini qo'llashni bekor qilishga asos bo'ladi.

Xavfsizlik choralarini bekor qilish ularni qo'llash to'g'risida qaror qabul qilgan organ yoki jinoyat ishini yuritayotgan organ tomonidan amalga oshiriladi. Xavfsizlik choralarini qo'llash to'g'risidagi qaror qabul qilingan va bekor qilingan hollarda asoslantirilgan qaror chiqarilib, xavfsizlik choralarini amalga oshiruvchi organga va himoya qilinuvchi shaxsga yuboriladi.

Yuqorida muhokama etilgan protsessual harakatlar, sabablar va asoslardan tashqari, himoya choralarini qo'llashda quyidagi prinsiplarga rioya qilinishi lozim: qonuniylik; shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish; himoya qilinuvchi shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; himoya qilinuvchi shaxslarning hamda himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlarining o'zaro javobgarligi; himoyalangan shaxslar haqida axborotning maxfiyligi.

Shu bilan birga, xavfsizlik choralarini qo'llash prokuratura nazorati, idoraviy va sud nazorati ostida amalga oshiriladi va himoyalangan shaxslarning uy-joy, mehnat va boshqa huquqlari buzilmasligi lozim.

"Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga ko'ra, himoya qilinuvchi shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash vazifasini bajarmaganlik yoki to'laqonli bajarmaganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik belgilangan. Biroq qonunda aybdor shaxsning harakatlari jinoyat kodeksning aynan qaysi moddasi bilan baholanilishi nazarda tutilmagan. Masalan, himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga ega mansabdor shaxs ishga jalb qilingan "A" ismli jabrlanuvchi tomonidan uning xavfsizligini ta'minlashni so'rab qilgan murojaati yuzasidan tegishli qaror qabul qilmaganligi natijasida ayblanuvchi tomonidan dastlabki tergov yoki ishni sudga ko'rish bosqichida jabrlanuvchi qasddan o'ldirilgan. Yoki tegishli qarorga asosan jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash vazifasi yuklatilgan mas'ul xodimning ehtiyotsizligi, o'ziga yuklatilgan vazifasini yetarli darajada bajarmaganligi, "A" ismli jabrlanuvchiga uning xavfsizligini ta'minlashni barcha choralarini ko'rmaganligi sababli ayblanuvchi tomonidan dastlabki tergov yoki ishni sudga ko'rish bosqichida jabrlanuvchi qasddan o'ldirilgan.



Bunday hollarda, aybdor shaxslarni jinoyat kodeksining aynan qaysi moddasi bilan javobgarlikka tortilishi qonunda aniq ko'rsatilmagan va amaldagi jinoyat qonunchiligida ham bunday norma mavjud emas.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, quyidagi fikrlarni ilgari surish mumkin:

*birinchidan*, xavfsizlikni ta'minlashning protsessual asoslari jinoyat protsessi sohasidagi xavfsizlik obyektlarining xavfsizligi holatini tartibga soluvchi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining qoidalari hisoblanadi. Bunday qoidalar orasida markaziy o'rinni xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risidagi qoidalar egallaydi;

*ikkinchidan*, Jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari mavjudligi va huquqiy himoya elementlari bo'lgan ushbu choralarni bevosita qo'llash faoliyati jinoyat protsessi sohasida xavfsizlikni ta'minlashning asosiy usullaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Jinoyat protsessida xavfsizlik choralari – bu jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, jinoyat protsessi sohasidagi xavfsizlik obyektlarini turli tahdidlardan himoya qilish va saqlashga qaratilgan o'ziga xos usullardir.

Xavfsizlik choralari va davlat muhofazasini qo'llash uchun faktik va huquqiy asoslar zarur hisoblanadi.

Protsessual xavfsizlik choralari qo'llash uchun faktik asos bu kelajakda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoiy yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlar jinoyat protsessining xavfsizligi obyektlariga nisbatan xavfli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar.

Xavfsizlik choralari qo'llash va davlat muhofazasining huquqiy asosi vakolatli mansabdor shaxs tomonidan xavfsizlik choralari qo'llash yoki davlat muhofazasini amalga oshirish to'g'risida yozma shaklda ifodalangan protsessual qarorni qabul qilishi hisoblanadi.

Xavfsizlik choralari qo'llashning sababi og'zaki va yozma bayonotlar, kelajakda sodir etilishi ehtimoli bo'lgan jinoiy yoki noqonuniy harakatlarning jinoyat-protsessual xavfsizlik obyektlariga xavfli ta'siri to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jinoyat ishi hujjatlari bo'lishi lozim.

Agar xavfsizlik choralari qo'llashning sababi va asoslari mavjud bo'lsa, vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar ularni qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishlari shart.

Xavfsizlik choralari qo'llash yuzasidan qaror qabul qilish choralari ko'rmagan, xavfsizlik choralari qo'llash yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmagan yoki ushbu choralari to'g'risidagi hamda himoya qilinuvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etganlikda aybdor bo'lgan shaxslar javobgarlikka tortilishi shart deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan Jinoyat kodeksi quyidagi normalar bilan to'ldirish taklif etamiz:

### **239-moddani quyidagi ikkinchi qism bilan to'ldirish:**

*“Himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi, xavfsizlik choralari, ijtimoiy himoya qilish choralari ta'minlovchi organlar mansabdor shaxsi xavfsizlik hamda ijtimoiy himoya choralari to'g'risidagi hamda himoya qilinuvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”*



## **240-1-modda. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining xavfsizligiga tahdid qilish.**

*“Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov vaqtida yoki sudda protsess ishtirokchilariga yoki jinoyat protsessini yuritish bilan bog‘liq boshqa shaxslarga nisbatan amalga oshirilishidan xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lgan o‘ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo‘q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o‘zga g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilish basharti, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”*

Mjtkni quyidagi yangi modda bilan to‘ldirish:

*182-1-modda. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining xavfsizligiga tahdid qilish.*

*“Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov vaqtida yoki sudda protsess ishtirokchilariga yoki jinoyat protsessini yuritish bilan bog‘liq boshqa shaxslarga nisbatan o‘ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo‘q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o‘zga g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.”*

### **References:**

1. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации. Федеральный закон от 18 декабря 2001 года N174-ФЗ.
2. Рекомендательные виды практики в области защиты свидетелей при производстве по уголовным делам, касающимся организованной преступности. Организация Объединенных наций, Нью-Йорк, 2008 год. –С.31.
3. Бюллетень Европейского Суда по правам человека. Российское издание. М., 2003. N 1. С. 34.
4. Kostovski v. The Netherlands, Judgement of 20 November 1989, Application No. 11451/85, Series A, No. 166; Windisch v. Austria, Judgement of 27 September 1990, Application No. 12489/86, Series A, No. 186; Ledi v. Switzerland, Judgement of 15 June 1992, Application No. 12433/86, Series A, No. 238; and Doorson v. The Netherlands, Judgement of 26 March 1996, Application No. 20524/92, Reports 1996-II)
5. Huber B. Development of the Criminal Law: Review// European Journal of Crime, Criminal Law and Criminal Justice 1993.
6. Ashworth A. The Criminal Process : An Evaluative Study. Oxford, 1994
7. Burnham W. Introduction to the Law and Legal System of the United States. West Publishing, 1994. Braithwaite J., Mugford S. Conditions of Successful Reintegration Ceremonies: Dealing with Juvenile Offenders// British Journal of Criminology. 1994. № 34.
8. Criminal Justice. An introduction to the Criminal Justice System in England and Wales. London, 1995; Braithwaite J., Mugford S. Conditions of Successful Reintegration Ceremonies: Dealing with Juvenile Offenders// British Journal of Criminology. 1994. № 34. P 78.



9. Суровенко И. А., Чабукиани О. А. Проблемные аспекты обеспечения безопасности свидетеля, участвующего в следственных действиях под псевдонимом/ //Научный диалог. 2013/ Выпуск № 7 (19): Экономика. Право. Политология. –С.142-143.
10. Минеева Г.П. Уголовно-правовая охрана свидетеля и потерпевшего: дис. ... канд. юрид. наук. М., 1993. С. 83.
11. Зайцев О.А. Теоретические и правовые основы государственной защиты участников уголовного процесса. М., 1997. С. 68.
12. Прыткова Е.В. К вопросу о реальности угроз лицу, подлежащему государственной защите // Проблемы осуществления государственной защиты участников уголовного судопроизводства: матер. девятой междунар. науч.-практ. конф. Барнаул, 2011. С. 173-174.
13. С.Сахаддинов. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига шарҳлар. Умумий қисм (илмий-амалий шарҳ) / Масъул муҳаррир: профессор Б.Х.Пўлатов. – Т: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 509-510
14. O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi 2019-yil 14-yanvardagi O'RQ-515-son Qonuni.